

OILAVIY NIZOLARNI MEDIATSIYA ORQALI HAL ETISH

Murodova Madinabonu

Toshkent davlat yuridik universiteti “Mediatsiya va nizolarni muqobil hal etish
usullari” yo‘nalishi magistranti

murodovamadinabonu20021511@gmail.com

Kalit so‘zlar: oilaviy nizolar, mediatsiya, mediator, maxfiylik, nizolarni muqobil hal etish, mediativ kelishuv.

Oila – bu jamiyat va davlatning asosi. Oila – bu biz shakllanadigan muhit. Agarda, oila tinch va sog‘lom bo‘lsa, bizning dunyoqarashimiz ham jamiyatga bo‘lgan munosabatimiz ham sog‘lom va manfaatli bo‘ladi. Bugungi kunda, jamiyatimizda oilaviy munosabatlarning murakkablashuvi va nikohdan ajralish kabi holatlarning ortib borishi oilaviy nizolarni hal etishning samarali usulini izlashni taqazo etmoqda. Bunday vaziyatda esa taraflar munosabatini saqlab qolish va kelishmovchiliklarni bartaraf etishning eng maqbul usulini topish muhim ahamiyat kasb etadi. Tabiiyki, nizolarni hal etish deganda, avvalo, sud tizimi orqali hal etish eng maqbul yechim sifatida namoyon bo‘ladi. To‘g‘ri, kelishmovchilik va nizolarni sud orqali hal etish qator afzalliklarga ega, ammo, afzalliklar bilan birgalikda ba’zi kamchiliklar ham borki, bu kamchiliklar taraflar o‘rtasidagi munosabatlarning nizodan keying holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Jumladan, sudlardagi ish hajmining yuqoriligi sabab, nizolarni chuqur tahlil qilish imkonining mavjud emasligi, ko‘rib chiqilganda ham nizoning oshkora hal qilinishi, vaqt va ortiqcha mablag‘ning sarflanishi, nizoning sudda ko‘rib chiqilishi natijasida ishning faqat bir tomon foydasiga hal etilishi, ikkinchi tomonning noroziligi sababli ayni bir nizoning appelatsiya va kassatsiya instansiyasida ham ko‘rib chiqilishi, nizolashayotgan taraflarning asabiylashishi va buning sog‘liqqa ta’siri va eng asosiysi, ushbu nizolar taraflar o‘rtasidagi munosabatlarning uzil-kesil tugashiga olib kelishi va hokazolar nizoni har ikkala tomon foydasiga hal etishning muqobil usulini qo‘llashga zaruratni vujudga keltiradi. Bugungi kunda, O‘zbekiston huquqiy tizimini yanada rivojlantirish, modernizatsiya qilish harakati amalga oshirilayotgan bo‘lib, bu jarayonda nizolarni muqobil hal etish usullarini joriy qilish va takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu tizim orqali demokratik huquqiy davlat qurilishida kelib chiqadigan fuqarolik-huquqiy va o‘zaro manfaatlariga taaluqli nizolarni tez, qulay va ortiqcha rasmiyatchiliklarsiz hal qilish imkoniyati vujudga kelmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining “Mediatsiya to‘g‘risida” gi qonuniga muvofiq, mediatsiya taraflarning o‘zaro maqbul kelishuvga erishishiga qaratilgan ixtiyoriy va

maxfiy jarayondir. Oilaviy huquqiy munosabatlar doirasida mediatsiyaning qo'llanilishi bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega. Mediatsiya jarayonida maxfiylik va ixtiyoriylik prinsipiga alohida ahamiyat beriladi. Chunki oilaviy nziolar shaxsning sha'ni va obro'yi bilan bog'liqligi uchun ham uning maxfiy tarzda olib borilishi maqsadga muvofiqdir. Mediatsiya kelishuvining ixtiyoriy ravishda tuzilishi ham fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlaydi. Xususan, ushbu jarayonda psixologik omil ham ustuvor ahamiyat kasb etadi, chunki oilaviy nizolar hissiy va ijtimoiy jihatlar bilan chambarchas bog'liqdir. Mediatsiya taraflar manfaatlarini muvozanatlashtirishga xizmat qilib, qarorning majburan emas, balki o'zaro kelishuv asosida qabul qilinishini ta'minlaydi. Nizolarni mediatsiya orqali hal qilish jarayonida nizoning har ikkala taraf manfaatlarini ko'zlaydigan yechim orqali hal qilinishi ham oilaviy nizolarni hal etishda mediatsiyani qo'llash naqadar muhim ekanligini isbotlaydi. Ba'zan mediatsiya oilaviy munosabatlarni saqlab qolish imkonini berishi bilan ham ajralib turadi. Ayniqsa, farzandlar manfaatlari bilan bog'liq nizolarda ushbu usul taraflar o'rtasidagi muloqotni tiklashga xizmat qiladi. Bundan tashqari, mediatsiya jarayonining tezkorligi va moslashuvchanligi uni sud tartibidan ustun qo'yadi.

Biroq, amaliyotda mediatsiya institutini qo'llashda ayrim muammolar mavjud. Jumladan, aholining ushbu institut haqidagi xabardorligi yetarli darajada emasligi, yetakchi malakali mediatorlarning yetishmasligi va aholining sud tizimi orqali nizolarini hal qilishga ko'nikib qolganligi mediatsiyaning keng qo'llanilishiga to'sqinlik qilmoqda. Mazkur muammolarni bartaraf etish maqsadida oilaviy nizolarda mediatsiya bo'yicha aholi xabardorligini oshirishga qaratilgan targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borish, mediatorlar tayyorlash tizimini takomillashtirish xususan, mediatorlarga qo'yiladigan malaka talablarini kuchaytirish va Singapur davlatidagi kabi har bir mediatorning faoliyat natijalarini aniq ko'rsatib borish hamda oilaviy nizolarda mediatsiyani majburiy qilish mexanizmini rivojlantirish zarur. Bu taklif mediatsiyaning ixtiyoriylik prinsipiga zid emasmi deb o'ylashingiz mumkin. Ammo, yo'q bu taklif ixtiyoriylik prinsipiga zid emas. Sababi, bu yerda taraflar mediativ kelishuv tuzishga majburlanmaydi balki, nizoni tinch yo'l bilan hal qilishga urunib ko'rishga chaqiriladi. Chunki ba'zan shunday nizolar borki, ular o'zaro kelishish orqali hal qilinishi va munosabatlar saqlanib qolinishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, mediatsiya oilaviy huquqiy nizolarni hal etishda samarali va zamonaviy mexanizm bo'lib, uning o'ziga xos xususiyatlarini chuqur o'rganish va amaliyotga tatbiq etish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi va xususan, oilaviy nizolarning aksariyati mediatsiya orqali hal qilinishi natijasida jamiyat va davlat asosi bo'lgan oilalar tinchligi va mustahkamligi saqlanib qolinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 3-iyuldagi "Mediatsiya to'g'risida" gi Qonuni // <https://lex.uz/docs/-3805227>
2. Xaqberdiyev A. A., Mamasiddiqov M. M. Nizolarni muqobil hal etish usullari. – T.: TDYU, 2025. - 43b.
3. Salimova I. M. Nizolarni hal qilishning muqobil usullari. – T.: TDYU, 2022. – 46b.